

Oliy ta'limda modullarni o'qitish jarayonida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning usul va vositalari

Teshaboeva Feruza Raximovna

Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat pedagogika instituti

Inklyuziv ta'lim kafedrasida dosenti, (PhD)

Qo'qon, O'zbekiston

G'ulomjonova Azizaxon Shuxratjon qizi

Madaminova Umidaxon Faroxiddin qizi

Bekmirzayeva Nigora Muzaffar qizi

Arabboyeva Mohidil Rizamatjon qizi

Maxsus pedagogika (Surdopedagogika)

yo'nalishi talabalari

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada oliy ta'lim sifatini oshirishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish yuzasidan tavsiyalar keltirilgan. SHu bilan birga, metodik xizmat samaradorligi kadrlar sifatiga bog'liqligi hamda ta'lim muassasasining ijtimoiy buyutma talablariga asoslangan maqsadi, vazifalarini bo'lajak mutaxassislar malaka talablariga uyg'unlashtirish lozimligi asoslab berilgan. Xususan, "Pionino" texnologiyasi bosqichlari va ushbu bosqichlarda amalga oshiriluvchi ishlar mazmuni keltirilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, innovatson metodlar, noanahaviy o'qitish metodlari, kasbiy kompetensiyalar, "Pianino" texnologiyasi, innovasion muhit.

АННОТАЦИЯ

В данной статье даны рекомендации по организации практических занятий с целью повышения качества высшего образования. При этом утверждается, что эффективность методических услуг зависит от качества персонала и цели образовательного учреждения, исходя из требований социального заказа, необходимости адаптации своих задач к квалификационным требованиям будущих специалистов. В частности, приведены этапы технологии Пюнино и содержание работ, проводимых на этих этапах.

Ключевые слова: высшее образование, инновационные методы, нетрадиционные методы обучения, профессиональные компетенции, фортепианные технологии, инновационная среда.

ANNOTATION

This article provides recommendations for organizing practical training to improve the quality of higher education. At the same time, the effectiveness of the methodological service depends on the quality of staff and the need to adapt the goals and objectives of the educational institution, based on the requirements of social order, to the qualification requirements of future professionals. In particular, the stages of "Pionino" technology and the content of the work carried out at these stages are given.

Keywords: higher education, innovation methods, non-traditional teaching methods, professional competencies, piano technology, innovative environment.

Surdopedagogika yo'nalishi bo'yicha bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyat mazmuni bevosita kar va zaif eshituvchi bolalar nutqi ustida ishlash bilan bog'liqdir. Bu vazifalar bilan talabalar kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o'rgatish metodikasiga oid mashg'ulotlar jarayonida tanishadilar. Kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o'rgatish samaradorligi har bir o'quvchining o'zigagina xos bo'lgan (individual) xususiyatlarning hisobga olinishiga bevosita bog'liqdir. YAKka (individual) yondashuvdan foydalanishga talabalarni tayyorlash

ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar jarayonidayoq boshlanadi. Korreksion – kompensator hamda rivojlantiruvchi tavsifga ega bo'lgan maxsus ta'lim tizimida differensial (tabaqalashtirilgan) hamda yakka (individual) tartibdagi yondashuv bolalarda mavjud muammolarni tuzatish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ikkilamchi muammolarning oldini olishga yo'naltiriladi. Bundan tashqari ona tili darslarining muhim xususiyati o'quvchilarga o'z-o'zini nomoyon qilish, o'zini-o'zi baholashga undagan holda ayrim sifatlarini isloh qilish yo'llarini o'rgatadi, sog'lom insonlar orasida nafaqat yashab qolish, balki turli munosabatlarda faol hamda samarali ishtirok etish uchun zarur ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida o'quvchilarning nutqiy imkoniyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan dars va yakka mashg'ulotlar pedagogik jarayonning asosiy shakli hisoblanadi.

Bo'lajak mutaxassisni kasbiy amaliyotga tayyorlashning asosiy yo'nalishi maxsus maktab-internatlarida dars va korreksion mashg'ulotlarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish hisoblanadi. SHu bois, “Ona tili o'qitish maxsus metodikasi” modulini o'qitish jarayonida qator interfaol usullar va ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarni kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga erishish bo'yicha tajriba-sinov ishlari olib bordik. Ushbu tajriba-sinov ishlarida qo'llanilgan interfaol usullar va ta'lim texnologiyalaridan namunalarni hamda ularning didaktik imkoniyatlarini keltiramiz.


1. “Pianino” texnologiyasi.

Ushbu texnologiya asosida mashg'ulot kichik guruhlar orqali tashkil etiladi. Bunda auditoriyada mavjud qatorlar bo'yicha topshiriqlar tizimli ravishda beriladi. Ushbu texnologiyaning amaliy mashg'ulotlarning mavzulari bo'yicha bir qancha variatsiyalari amaliyotda qo'llanildi.

1-variant

1-qatorda o'tirgan talabalarga “Kim?”, “Nima?” so'rog'iga javob beruvchi so'zlarni o'ylash topshirig'i beriladi. 2-qatordagi talabalar aytilgan so'zga so'z qo'shadi. 3-qatordagi talabalar birinchi aytilgan so'z ishtirokida gap tuzadilar.

O'qituvchi gapni eshitgandan so'ng qator oralab, talabalarga topshiriq beradi. Gapdagi 1-so'zga so'roq bering. SHu tarzda gapdagi barcha so'zlarga so'roq berishni har xil talabadan so'raydi. Ushbu usuldan karlarga ona tilini o'rgatish amaliyotida foydalanishni talabalarga tushuntirish uchun ekranda quyidagi sxema namoyish etiladi.




2-variant


2-varianda ham **1-qator** “Kim?”, “Nima?” so'rog'iga javob beruvchi so'zlarni o'ylaydi. **2-qator** so'zga so'z qo'shadi. **3-qator** bir so'z ishtirokida gap tuzadi. SHundan so'ng o'zgargan vaziyat taqdim etiladi, ya'ni o'qituvchi gapni ixtiyoriy talabaga doskaga yozishini so'rashi mumkin. So'ngra doskadagi kamida 4 ta gap sintaktik, morfologik tahlil etiladi. Bundan tashqari talabalarga so'zlarni alohida imlo qoidalari asosida hamda xusniyat me'yorlariga rioya etib yozish topshiriqlari ham tavsiya etildi. Natijada talabalarining boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga yozish qoidalari o'rgatish usul va yo'llarini egallash imkoniyati yaratildi. Jumladan quyidagi yozuv malakalarini egallash usullari alohida topshiriq sifatida tanlandi:

1. CHiziqli usul
2. Genetik usul
3. Nushaga qarab ko'chirish usuli
4. Tasavvur orqali yozish usuli
5. Ritmik (sanoq-ohang) usul

Ektranda quyidagi sxema namoyish etiladi.



3-variant



Surdopedagogika yo'nalishi talabalariga kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini samarali o'rgatishning innovasion usullarini o'rgatishga oid quyida keltiriluvchi texnologiyalardan modulning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari jarayonida samarali qo'llanildi. Ushbu texnologiyadan karlar ta'limida foydalanish metodik jihatdan qulay va talabalar uchun qiziqarli hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, “Ona tilini o'qitishning maxsus metodikasi” modulini samarali tashkil qilishda amaliy mashg'ulotlarni o'rni katta, chunki amaliy mashg'ulot jarayonida talabalar bo'lajak kasbiy faoliyatga tashkiliy-metodik jihatdan tayyorlanadilar. Amaliy mashg'ulot jarayonida muxokama etiladigan masalalar ma'ruzada berilgan nazariy ma'lumotlarni mustahkamlaydi. SHuning uchun mashg'ulotda har bir talabaning faol ishtirokini ta'minlashga aloxida e'tibor qaratish lozim.

Amaliy mashg'ulotlarda o'zaro hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalariga ustivorlik berish lozim. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv modullariga oid amaliy mashg'ulotlar jamoaviy, guruhli mashg'ulotlardir. Talabalar uchun kurs davomida mehr-oqibat va o'zaro ishonch muhiti hukmron bo'lsa, ular o'zlarini erkin his qilishadi, tushunarsiz bo'lgan narsalarni so'rashdan cho'chimaydilar va natijada sohani to'liq o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

CHunki har qanday mashqlarda qilingan xato tuzatiladi va kelajakdagi kasbiy faoliyatda yuz berishi mumkin bo'lgan katta muammolarning oldi olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Goldman N.D. Nauchno-teoreticheskie osnovy razvitiya pedagogicheskix texnologiy kak sredstvo podgotovki kokurentnosposobnyx spetsialistov. Avtoref. diss. k.p.n., –T.: 2007. 26 s.
2. Feruza, Teshabaeva, Mahmudova Madina, and Yuldasheva Dilbar. "The essence of inclusive education in developed countries." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8.1* (2020).
3. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza. "Teaching subjects in higher education on the basis of innovative technologies." *Science Promotion* 1.2 (2023): 98-104.
4. Teshaboeva, Feruza Raximovna. "Literacy education of speech impaired children as a pedagogical psychological problem." *Confrencea* 5.05 (2023): 299-302.
5. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza. "Teaching of sciences in higher education on the basis of innovative technologies." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 141-147.
6. Raximovna, Teshaboeva Feruza. "O 'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNING RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI." *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 873-875.
7. Feruza, Teshaboyeva. "INKLYUZIV TA'LIMNING O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISHI." *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 546-548.
8. Rahimovna, Teshaboeva Feruza, and Usmonjonova Saodatkhan Mirzakhamdamovna. "WAYS TO IMPROVE SPEECH ABILITIES OF CHILDREN WITH INTELLECTUAL DISABILITIES." (2023).
9. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza, and Sadiqova Munavvarkhan. "PECULIARITIES OF THINKING OF CHILDREN WITH SPEECH DEFECTS." (2023).
10. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Rustamova Feruzabanu. "CONTRIBUTION OF CHARLES MIKHAIL EPE TO THE EDUCATION OF DEAF CHILDREN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 563-566.
11. O'ghiloy, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Kurbanuva. "CHILDREN WITH LOCAL MOVEMENT DEFECTS." *Confrencea* 3.03 (2023): 226-230.
12. Raximova, Xurshidaxon. "NATIONAL AND FOREIGN ADVANCED TRENDS IN HIGHER EDUCATION EFFICIENCY IMPROVEMENT." *JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY* (2022).
13. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhon, and Nabiyeva Umidakhon. "ORGANIZING SOCIAL WORK ACTIVITIES OF STUDENTS WITH HEARING PROBLEMS." (2023).
14. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhon, and Odilova Rislig'oy. "PROBLEMS OF PREPARING HIGH SCHOOL STUDENTS WITH HEARING DEFECTS FOR FAMILY LIFE." (2023).
15. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhon, and Sharafuddinova Zuhra. "FORMATION OF MATHEMATICAL CONCEPTS OF CHILDREN WITH HEARING DEFECT USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES." (2023).
16. Komiljon, Raximova Xurshidaxon Sadikovna Sattarova Kamola. "PEDAGOGICAL AND EDUCATIONAL SYSTEM OF EDWARD SEGEN IN SPECIAL PEDAGOGY." *Confrencea* 3.03 (2023): 63-67.
17. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "CORRECTIONAL AND PEDAGOGICAL WORK SYSTEM OF AUDITORY-SPEECH REHABILITATION OF CHILDREN WITH

- COCHLEAR IMPLANTS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.6 (2022).
18. Sobirkhonovna, Mahmudova Madina. "THE IMPORTANCE OF THE USE OF PROJECT TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE PROCESS OF INDEPENDENT LEARNING." *EURASIAN EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION* (2020): 29.
 19. Sobirxonovna, Maxmudova Madinaxon. "GENEALOGY OF SCHOLARS AFTER THE 15TH CENTURY IN THE STUDY OF SPEECH DEFICIT." *Confrencea* 11.11 (2023): 21-25.
 20. Sobirxonovna, Maxmudova Madinaxon. "The genealogy of thoughts of the manifestations of ancient antiquity in the study of the speech deficit of dislaliya." *Confrencea* 11.11 (2023): 17-20.
 21. Sobirkhonovna, Makhmudova Madinakhan, and Goyipova Nodira. "Theoretical aspects of the development of academic mobility of future speech therapists in dual education." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 148-154.
 22. Dildora, Madinahan Makhmudova Musayeva. "THEORETICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE EDUCATOR OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES." *Confrencea* 12.2 (2023): 170-178.
 23. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Нутки тўлик ривожланмаган мактабгача ёшдаги болаларни ёзма нуткка тайёргарлигини шакллантириш муаммолари." *Confrencea* 12.2 (2023): 179-186.

